

# Toshkent - Madrid ilk aviaqatnovi

2025 7 Aprel

Bugun, 2025-yil 7-aprel kuni Uzbekistan Airways Toshkent - Madrid yangi xalqaro yo'nalishi bo'yicha birinchi parvozni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.





O'zbekiston poytaxtidan Ispaniya poytaxtiga to'g'ridan-to'g'ri parvoz aviatashuvchining parvozlari geografiyasini kengaytirish va Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi transport aloqalarini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Yo'nalishning ochilishi ikki mamlakat aviatsiya ma'muriyatining yo'nalishga bo'lgan qiziqishi va qo'llab-quvvatlashi tufayli amalga oshirildi.



Toshkent - Madrid - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha parvozlari haftada bir marta dushanba kunlari amalga oshiriladi. Bu nafaqat mamlakatlar oʻrtasida sayyohlik va madaniy almashinuvni rivojlantirish, balki ishbiarmonlik hamkorligi va tranzit tashuvlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi.



Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.